Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320226

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

YASHIL IQTISODIYOTNI INVESTITSIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

MAMATOV BAXADIR SAFARALIYEVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
E-mail: bahadir_mamatov@mail.ru
ORCID: 0009-0004-6227-5103

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi dunyo iqtisodiyotini transformatsiya qilishni talab etmoqda. "Yashil" iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan model bo'lib, bu nafaqat atrof-muhitni asrash, balki iqtisodiy o'sishni resurs tejamkorligi va ijtimoiy farovonlik bilan uyg'unlashtiruvchi strategik yo'nalishdir. Ushbu modelga o'tish esa ulkan investitsiyaviy mablag'larni talab qiladi. Eng muhimi, ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish"195 "O'zbekiston - 2030" strategiyasining hozirgi umumjahon tendensiyalari, global o'zgarishlar va yangi chaqiriqlarga uyg'unligini ta'minlash maqsadidagi eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

""Yashil" investitsiyalar – bu qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va tabiiy ekotizimlarni saqlashga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalardir"196. Ularning an'anaviy investitsiyalardan asosiy farqi ESG (Environmental, Social, and Governance) tamoyillariga asoslanishidadir: E (Ekologik) – atrof-muhitga zararni minimallashtirish; S (Ijtimoiy) – jamiyat farovonligi va mehnat sharoitlarini yaxshilash; G (Boshqaruv) – shaffoflik va korporativ etika.

"Yashil" loyihalarni moliyalashtirish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va uning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Uzoq muddatli qaytim, Ko'plab "yashil" loyihalar (masalan, quyosh yoki shamol elektr stansiyalari) dastlabki bosqichda katta kapital talab qiladi, biroq ularning o'zini oqlash muddati an'anaviy loyihalarga nisbatan uzoqroq bo'lishi mumkin.

195 ПФ-21-сон 16.02.2026. Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида.

196 Кельчевская Н.Р. Устойчивая трансформация промышленных предприятий с применением инструментов зеленой экономики и цифровизации: монография. – М.: Креативная экономика, 2024. – 216 с.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Mamatov Baxadir Safaraliyevich (2026). Yashil iqtisodiyotni investitsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320226

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

2. Past operasion xarajatlar. Dastlabki investitsiya yuqori bo‘lsa-da, keyingi foydalanish xarajatlari minimal bo‘ladi. Masalan, quyosh paneli uchun yoqilg‘i sotib olish shart emas — energiya manbai bepul.

3. Innovasion xavf-xatarlar. Yashil texnologiyalar doimiy rivojlanishda bo‘lgani uchun, bugungi zamonaviy texnologiya ertaga ma’nan eskirishi xavfi mavjud. Bu esa investorlardan yuqori texnologik ekspertiza talab qiladi.


4. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish. Ko‘p mamlakatlarda “yashil” investorlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va “yashil” tariflar (feed-in tariffs) joriy etilgan. Bu loyihaning jozibadorligini oshiradi.

5. Moliyaviy vositalar. “Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirishda quyidagi instrumentlar keng qo‘llaniladi: yashil obligatsiyalar – mablag‘lar faqat ekologik loyihalar uchun ishlatiladigan qarz vositasi; iqlim fondlari – xalqaro tashkilotlar tomonidan iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun ajratiladigan grant va kreditlar; eks-sug‘urta – ekologik halokatlar yoki iqlim bilan bog‘liq risklardan himoya qilish; venchur kapitali – yangi yashil startaplarga yo‘naltirilgan yuqori riskli investitsiyalar.

6. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlar. Ba’zi kompaniyalar o‘zlarini ekologik toza ko‘rsatib, aslida an’anaviy usulda ishlash orqali investorlarni chalg‘itish xavfi ham bor. Global miqyosda nima “yashil” va nima “yashil emas” ekanligi bo‘yicha yagona qat’iy mezonlarning shakllanish jarayonida ekanligi bois ham bu masala muammolidir. Qazib olinadigan yoqilg‘i (neft, gaz) narxining pasayishi ba’zan yashil energiyaga bo‘lgan qiziqishni vaqtincha susaytirishi ham mumkin.

Yashil iqtisodiyotga qaratilgan investitsiyalarning asosiy yo‘shnalishlarini quyidagicha tasniflash va tavsiflash mumkin:

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —



1-rasm. Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari197

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish. Masalan, Yevrokomissiya tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil strategiya” doirasida 2030-yilgacha biologik xilma-xillikni saqlash, transportdan chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun mablag‘ ajratish rejalashtirilgan edi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish uchun texnologik modernizatsiya va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirishdan foydalanish rejalashtirilgan. Iqlim o‘zgarishining oqibatlariga moslashish va yumshatish, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirish va tabiiy ekotizimlarni saqlash muhimdir. “Yashil” tarmoqlarga moliyaviy yordam ham xalqaro darajadagi masala bo‘lib, bunga “Yashil strategiya”si doirasida iqlim o‘zgarishining oqibatlarini oldini olish uchun mablag‘ yo‘naltirilmoqda. Atrof-muhitga zarar yetkazadigan ishlab chiqarishga investitsiyalarni qisqartirish zarur. Masalan, Yevropa investitsiya banki 2022-yildan gaz loyihalarini kreditlashni to‘xtatdi. “Zararli” sanoat tarmoqlari uchun soliq yukini oshirish kerak, masalan, uglerod solig‘ini joriy etish rejalashtirilgan edi: keng miqyosda karbonat angidrid chiqaradigan mahsulotlarni import qilish va ishlab chiqarish uchun to‘lov olish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda “Yashil” iqtisodiyotni investitsiyalash – bu nafaqat ijtimoiy mas’uliyat, balki kelajak iqtisodiyotida raqobatbardosh bo‘lishning yagona yo‘lidir. investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan huquqiy

197 Тадқиқотчи томонидан шакллантирилган.

bazani mustahkamlash, “yashil” loyihalar uchun imtiyozli kredit liniyalarini ochish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim. Kelajakda kapital oqimi faqat foyda ketidan emas, balki atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi loyihalar tomon yo‘nalishi kutilmoqda. Ushbu jarayonda birinchilardan bo‘lib investitsiya kiritgan davlatlar va kompaniyalar strategik ustunlikka ega bo‘ladilar.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti